



## TA'RIX JANRIDA IFODALANGAN BADIY HAQIQATLAR (MILLIY UYG'ONISH DAVRI FARG'ONA VODIYSI ADABIYOTI MISOLIDA)

Barziyev Oybek Xabibullayevich

*FarDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrasи*

*katta o'qituvchisi, filologiya fanlari*

*bo'yicha falsafa doktori, (PhD)*

**Annotatsiya.** Maqolada milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysiga mansub shoirlar; Husaynquli Muhsiniy, Abdulmajid Hofiz qalamiga mansub bo'lgan ta'rrix janrida bitilgan ayrim lirik asarlarda ifodalangan badiy haqiqatlar haqida gap boradi. Tarixiylik prinsipi asosida yozilgan mazkur tadqiqot ishida abjad hisobi orqali yechimini topgan ayrim yillarga ilk bor murojaat qilinganligi bilan xarakterlanadi.

**Annotation:** In the article, poets belonging to the Ferhana Valley of the national renaissance: It is about the artistic truths expressed in some lyrical works written in the genre of history written by Husaynquli Muhsini and Abdulmajid hafiz. This research work, written on the basis of the characterized by the fact that it is the first time to refer to certain years, which have been solved by abjad calculation.

**Аннотация:** В статье поэты Ферганской долины национального Возрождения: Речь идет о художественных истинах, выраженных исторического жанра Хусайнкуль Мухсини и Абдулмаджида Хафиза. Данная исследовательская работа, написанная на основе принципа историчности, характеризуется тем, что в ней впервые упоминаются отдельные годы, решенные методом абджада.

**Kalit so'zlar:** ta'rrix janri, ta'rrix-marsiya, abjad hisobi, hijriy va milodiy yil, mashhur shaxslar vafoti munosabati bilan yozilgan ta'rinxlar, mashhur binolar qurilishiga atab bitilgan ta'rinxlar, tarixiy haqiqatlar.

**Key words:** genre of history, history-marsiya, abjad calculation, Hijri and AD years, histories written on the occasion of the death of famous people, histories attributed to the construction of famous buildings, historical facts.

**Ключевые слова:** жанр истории, история-марсия, расчет абджада. Годы Хиджры и нашей эры, истории, написанных людей, истории приписываются строительству знаменитых зданий, исторические факты.

Badiy adabiyot sohasida qadimdan ta'rrix janri o'zining murakkab va muallifning o'uga toldirishi, undagi yashiringan jumboqni yechishga da'vat qilishi bilan ajralib turadi. Shu jihatlariga ko'ra bu ko'hna janrda ijod qilish ko'proq mehnatni talab qilib kelgan. Ayniqsa, u arab alifbosi bilan bog'liq bo'lgan abjad hisobiga tayanishi shoirga yanada ko'proq mas'uliyatni yuklaydi.

Qo'qon adabiy muhitining vakili Husaynquli Sulaymonquli o'g'li Muhsiniyning 2008-yilda aqabiyotshunos-tadqiqotchi Usmonjon Ne'matov tomonidan nashrga tayyorlangan "Barhayot gulshan" nomli devonga shoirning jami 13 ta ta'rrix janriga oid



she'ri kiritilgan. Shoiring "Muborak" radifli va Xonbobo deb atalgan o'z davrida boylar orasida mashhur bo'lgan tarixiy shaxsga bag'ishlangan 2 ta she'ri va Eshoni hoji Hakim xalfa muayyan tarixiy shaxslar vafoti munosabati bilan yozilgan. "Muborak" rafifli ta'rinxining oxirgi bayti

Ko'nglum sanga yoruqtur, ham shishasi siniqtur,  
Ilgimda tuhfa yo'qtur, qildim duo muborak!

So'rdum zakoatimdin soli julusi Muhsin,  
Tarix anda dedi: - hukmi qazo muborak!<sup>65</sup>  
tarzida yakunlanadi.

Bayt oxirida ajratib ko'rsatilgan birikma "hukmi qazo muborak" bo'lib, uning isqot qilinishi esa

مبارک	قطا	حکمی
263=20+200+1+2+40	901=1+800+100	68=40+20+8

Demak, mazkur raqamlar yig'indisidan hijriy 1332-yil nomi kelib chiqsa, milodiy 1914-yilda ta'rix janrida qayd etilgan siymoning vafot yili aniqlanadi. Yoki Xonbobo hoji haqidagi ta'rilda uning bir qator ijobjiy sifatlarini tilga olinadi. Uni chin inson ekanligini aytgan holda tijorat ishida Xitoy xoqoni – Fag'furga tenglashtiradi. Sodda, sofdir, ko'nglida g'ubori bo'limgan ushbu o'z davrining qahramonini hayotida namozni kanda qilmaganligiga, nafs ra'yiga qarshi borgan purzo'r kishi bo'lganligini yozgan holda

Qilmadi hargiz hayotida namozni ul qazo,  
Nafs jahdina chunon o'z rahiyya purzo'r edi.

Bor uchun fayzi sadoqat xilqatu atvorida,  
Muhsiniy bedil dedi: Ta'rifi u mag'fur edi<sup>66</sup>

tarzida yakunlanadi. Baytning ta'rix moddasiga yashiringan so'z "mag'fur" bo'lib, u (arabcha مغفور - 1. Marhum, o'lgan; 2. Rahmatli, kechirilgan<sup>67</sup>) so'zi isqot qilinadi.

- "Mag'fur" so'zidan 40+1000+80+6+200= hijriy 1326, milodiy 1908-yil nomi kelib chiqmoqda.

Yoki andijonlik shoir Abdulmajid Hofizning fors-tojik tilida bitilgan o'z davrining diniy rahnamolari yoki amaldor boylariga bag'ishlab yozilgan Olimjonboy, Xo'qandiy (laqabi Boy afandi) ga atalgan shaxsning ta'rix moddasi

Hofiz az piri xirad pursid soli rihlatash,  
Guft soli rihlati o' "boy" az "Farg'ona" raft<sup>68</sup>  
tarzida tugallangan bo'lib, uning yechimi quyidagichadir:  
بای فرغانه

<sup>65</sup>Муҳсиний. Барҳаёт гулшан (Девон) / Нашрга тайёрловчи: Неъматов У. Фарғона нашриёти, 2008. – Б. 146.

<sup>66</sup>Юқоридаги манба. – Б. 147.

<sup>67</sup>Навоий асарлари учун қисқача лугат / Тузувчи: Ҳасанов Б. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 165.

<sup>68</sup>Кўхна садолар / Тўплаб, нашрга тайёрловчи: Мадғозиев И, проф. Д.Қуроновнинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: Akademnashr, 2020. – Б. 203.



10+1+2 3+80+1000+200+80

Demak, Olimjonboy Xo'qandiyning vafoti hijriy 1323, milodiy 1908-yilga to'g'ri kelmoqda.

Ta'rrix janrida bino va inshootlar, xonaqoh, masjid hamda madrasalar, ravoqlarning nechanchi yil va oyda qurib bitkazilganligiga ishora qiluvchi muhim sanalar nomiga murojaat qilish o'ziga xos an'ana bo'lib kelgan. Abdulmajid Hofizning tojik tilida bitilgan "Ta'rxi binoi madrasa va qozixona qozi Rustam ki har du dar yak makon bino yofta dar mahallai Umarbek dodxoh (Umarbek dodxoh mahallasidagi qozixona), "In xurufi rezaxoi bemiqdor ki az tabhi zod roqim xurufast aslahallohu taolo avolahu dar ta'rxi binoi xonaqohi Chuqurmadrasi dar madhi bonu on janobi Abdusame' maxdum Andijoni alayhirrohma" (Abdusame' maxdum Andijoni nomidagi Chuqurmadrasa), "Dar ta'rxi binoi mehmonxonayi mulla Ro'zi Oxund boy Ma'ruf marhum ki sohibi judu karam bud" (Ro'zi Oxund boy Ma'ruf nomidagi mehmonsaroy), "Dar ta'rxi mehmonsaroy janob xalifa Abdussame' maxdum domla alayhirrahma (Xalifa Abdussame' maxdum domla nomiga atab qurilgan mehmonxona<sup>69</sup>)" kabilarda o'z davrining atoqli diniy ulamolari, shariat peshvolarining muborak nomlari hurmat bilan tilga olinadi. Ularning aholiga qilgan ezgulik yo'lidagi ishlari, mehr-muhabbat, saxovat bobida tengsiz ekanliklari eslatib o'tiladi. Shu sababli ularning amalga oshirgan xayrli ishlari tarixga umrbod muhrlanishi uchun muayyan bino yoki inshootga ismlari qayd etib qo'yilgan. Hofizning mashhur inshootlar qurilishi madhiga bag'ishlab yozilgan ta'rixlari hijriy 1321, milodiy 1903, hijriy 1320, milodiy 1902, hijriy 1324, milodiy 1906-yillarda qurib bitkazilganligiga ishora qilinadi. Bino va inshootlar qurib bitkazilishiga atab yozilgan ta'rixlar mavzusida shoir Muhsiniy ham barakali ijod qilgan. Shoirning bir mashhur binoni qurib bitkazgan egasi Toshmuhammad boyvachcha deb tanishtirilgan "Ajoyib manzaradur rohatafzo..." deb boshlanuvchi ta'rixining moddasi "- Ey Muhsiniy, joyi hukumatxonayi oliy" deb yakunlangan. "Ta'rxi mehmonxonasi" hijriy 1312, milodiy 1894-yilda qurib bitkazilgan yana bir mehmonxona ta'rxi, "Islom maktabining bunyodi" deb atalgan ta'rixining moddasi "Al-mahmumru mahzur" deb ta'riflangan. "Ta'rxi maktabxonasi"da o'z davridagi bino va inshootlar qurilishiga bo'layotgan hukumat rahbarlarining e'tibori, aholining qurilayotgan inshootlarga qiziqishi, masjid va madrasalarning tashqi, ichki manzarasi, ulardag'i keng imkoniyat hamda qulayliklar haqida batafsil fikr bildiriladi. Masalan, uning "Ta'rxi hammom"ida

Muhsiniy piri hiraddin so'radim ta'rixin,  
Qaysi soati zamon ichra topibdur itmom.

Mumkin o'lmas dedi ta'rixin aqlim piri,  
Boz jaxdu jaxd ila bu yanglig' hammom  
deya yozgani holda uning qurilgan davriga murojaat qiladi va o'z zamonasida unday boshqa hammom yo'qligini e'tirof etadi.

<sup>69</sup> Юкоридаги манба. – Б.204.



Xulosa qilib aytganda, milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyatida ta'rix janri orqali muayyan qurilish binolarining yaratilgan vaqt yoki mashhur tarixiy yoki adabiy siymolarning vafot etgan yili xususida teran tasavvurga ega bo'lamic. Bu ko'hna janr o'z davrida keng xalqqa keng ommalashmagan bo'lsa-da, lekin milliy mustaqilligimiz tufayli ularni atroflicha va chuqur tadqiq etish huquqiga ega bo'ldik. Ayni damda, mazkur janrda ifodalangan muayyan yillar bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy voqeliklarni tarixiy haqiqatlar sifatida kelgusi avlodga tanishtirib borish esa bugungi kunning ustuvor vazifalardan sanaladi. Chunki, mazkur qadimiy janrda ifodalangan yil nomlari xalqimizning qalbi va ongida alohida milliy qadriyat sifatida saqlanib qolishi muqarrardir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muhsiniy. Barhayot gulshan (Devon) / Nashrga tayyorlovchi: Ne'matov U. Farg'ona nashriyoti, 2008.
2. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at / Tuzuvchi: Hasanov B. – Toshkent: Fan, 1993.
3. Ko'hna sadolar / To'plab, nashrga tayyorlovchi: Madg'oziyev I, prof. D.Quronovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Akademnashr, 2020.